

**Toshkent davlatsharqshunoslik universiteti**

**Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti**

**Sharq falsafasi va germenovtika kafedrasining 70220502 – Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi II bosqich magistranti Matyakubov Ismoil Jumaboy o‘g‘lining “Naqshbandiylik tariqati va Chishtiya tariqati tasavvufiy ta’limotlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi tasavvuf falsafasining yirik yo‘nalishlari hisoblangan Naqshbandiylik va Chishtiya tariqatlarining shakllanish tarixi, falsafiy-ma’naviy asoslari, axloqiy tamoyillari hamda ularning o‘zaro umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy jihatdan tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Bugungi globallashuv sharoitida inson ma’naviyati, diniy bag‘rikenglik, komil inson tarbiyasi va ruhiy poklanish masalalarining dolzarbligi ortib borayotgan bir davrda mazkur mavzuning tanlangani ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tasavvufiy ta’limotlarning insonparvarlik mohiyatini ilmiy asosda yoritish yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Magistrant mazkur tadqiqot ishining kirish qismida magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi va manbalari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning tavsifi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati masalalarini to‘laqonli ilmiy asosda bayon etishga harakat qilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi va manbalarini yoritish jarayonida bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini sanab o‘tgan.

Matyakubov Ismoil Jumaboy o‘g‘li mazkur masalani yoritishda uch bob va olti paragrafdan iborat reja asosida manbalardan keng foydalangan, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilib, izchil xulosaga kelgan. Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi 102 sahifadan iborat.

Dissertatsiyada Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiylik tariqatining mehnatsevarlik, ichki poklik, xufiy zikr va shariatga sodiqlik tamoyillari chuqur tahlil qilingan. Naqshbandiylik tariqatining asosiy g'oyalari, xususan "Dil ba yoru, dast ba kor" konsepsiyasining mohiyatini ilmiy manbalar asosida ochib bergan. Shu bilan birga, Moinuddin Chishti nomi bilan bog'liq Chishtiya tariqatining muhabbat, bag'rikenglik, insonlarga xizmat qilish va ruhiy kamolotga oid qarashlari ham ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Muallif tomonidan har ikki tariqatning tasavvufiy-amaliy jihatlari, zikr va suluk usullari, ijtimoiy ya'ni jamiyat va shaxs munosabatiga doir qarashlari va inson kamoloti haqidagi ta'limotlari qiyosiy asosda yoritilgani tadqiqotning ilmiy qiymatini oshirgan.

Dissertatsiyaning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot davomida klassik tasavvuf manbalari, Sharq mutafakkirlari merosi hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan samarali foydalanilgan. Ishning tili ilmiy-uslubiy jihatdan ancha ravon bo'lib, fikrlar izchil bayon qilingan. Ayniqsa, Bahouddin Naqshband va Moinuddin Chishti ta'limotlarining falsafiy mohiyatini ochishda muallifning mustaqil ilmiy yondashuvi yaqqol namoyon bo'ladi.

Magistrant magistrlik dissertatsiyasining yakunida mavzu yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni bera olgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Naqshbandiylik va Chishtiya tariqatlarining falsafiy mohiyati ilk bor yagona tasavvufiy tizimning tarkibiy qismlari sifatida emas, balki metodik jihatdan farqlanuvchi mustaqil yo'nalishlar sifatida qiyosiy tahlil asosida tizimlashtirilgan;
- tadqiqot jarayonida zikr amaliyotining maxfiy va jahriy shakllari faqat tashqi ibodat ko'rinishi sifatida emas, balki murid ongiga ta'sir etuvchi psixologik va metodik mexanizm sifatida izohlangan;

- Naqshbandiya tariqatida ichki nazorat va diqqatni jamlashga asoslangan model, chishtiya tariqatida esa hissiy-ta'sir va jamoaviylikka tayangan model ustuvor yo'nalish sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.
- ikki tariqatning ijtimoiy faoliyat shakllari – Naqshbandiyadagi intizomiy tizim va chishtiyadagi langar modeli – o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi funksional o'rni ochib berilgan. Natijada tasavvuf ta'limotidagi ichki differensiasiya tariqatlar kesimida tizimli yondashuv asosida yoritilib, uning murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega ekani ilmiy jihatdan asoslanilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotda ayrim kamchiliklar ham mavjud:

- I bob va II boblarda nazariy mulohazalar ortiqcha tafsilot bilan bayon qilinganligi sababli tahliliy yondashuv biroz susaygan;
- ayrim xorijiy ilmiy manbalarga murojaat qilish ko'lami kengroq bo'lishi maqsadga muvofiq edi;
- qiyosiy tahlilda Naqshbandiya tariqatidagi faol mehnat va jamiyat bilan uyg'unlik, Chishtiya tariqatidagi faqirlik va ruhiy muhabbat masalalari bo'yicha muallifning shaxsiy ilmiy xulosalari yanada aniqroq ifodalansa, ishning ilmiy salmog'i yanada oshgan bo'lar edi;
- texnik jihatdan ayrim imloviy va uslubiy xatolar uchraydi.

Biroq mazkur kamchiliklar dissertatsiyaning umumiy ilmiy saviyasi va mazmun-mohiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Umuman olganda, “Naqshbandiylik tariqati va Chishtiya tariqati tasavvufiy ta'limotlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi mustaqil bajarilgan, tugallangan ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi. Matyakubov Ismoil Jumaboy o'g'lining “Naqshbandiylik tariqati va Chishtiya tariqati tasavvufiy ta'limotlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi oliy ta'limning yuqori talablariga to'liq javob beradi. Ishda yo'l qo'yilan ayrim kamchiliklarga qaramasdan, uni ijobiy bahoga, Matyakubov Ismoil Jumaboy o'g'lini esa “magistr” akademik darajasini olishga loyiq, deb hisoblaymiz.

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

**Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası**

**o'qituvchisi:**



**PhD. Sh.N. Sulaymonova**